

Andijon davlat tibbiyot instituti bioorganik va biologik kimyo kafedrası



Bioorganik va biologik kimyo kafedra mudiri, kimyo fanlar nomzodi, dotsent: Xolboev Yu.X.

Tel: +99891 620-70-21

e-mail Holboev70@mail.ru

Bioorganik va biologik kimyo kafedrası tarixi va faoliyati

Andijon davlat tibbiyot instituti 1955-yil oktabr oyida tashkil etilgandan keyin kimyo kafedrası birinchilar qatorida shu yiliyoq ish boshlagan. Kafedra o'z faoliyatini asosiy o'quv binosida 1955-yildan 1999-yil oxirigacha davom ettirib keldi. 2000-yil boshida institut yangi binoga ko'chib o'tishi munosabati bilan 4-qavatidan zamonaviy o'quv laboratoriyalari ajratildi. Kafedra hozirgi kunda 2-o'quv binosida faoliyat ko'rsatmoqda.

1955 –1959 yillari kafedrani dotsent Yusupov F.Yu. boshqargan.

1959-yilning avgust oyidan boshlab kafedraga professor Raevskiy S.A. mudir etib tayinlangan. Yildan yilga kafedra a'zolari soni o'rta boshlagan. 1964-1967 yillarda dotsent Fuzaylov Yu.M. kafedraga rahbarlik qilgan.

1967-1989 yillarda dotsent Lutfullin K.L. kafedra mudiri etib tayinlangan. U o'z faoliyati davomida ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi, yosh olimlarni yetishib chiqishiga katta hissa qo'shdi.

1990-1996 yillarda kafedra mudiri dotsent Mirzaboev E.A. tayinlandi. Kafedraning ilmiy salohiyati ko'tarila boshladi.

1996- 2004-yillar kafedra mudiri prof. Karimov A.K. ish yuritdi. ADTI da mahnaviy-mahrifiy ishlar bo'yicha prorektori, ADTI qoshidagi 1-akademik litsey direktori vazifalarida ham faoliyat olib bordi. Kafedradagi faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga o'quv jarayoniga va uni rivojlanishiga jiddiy e'tibor berdi. Kafedrada tashkil etilgan "Yosh kimyogar" to'garagi a'zolari Respublika nufuzidagi fan olimpiadalarida faxrli o'rnlarni egalladilar.

2004-yildan buyon kafedra normal fiziologiya, biologik va bioorganik kimyo deb nomlana boshladi. Kafedra mudiri etib, prof. Qodirov Sh.Q. faoliyat yurita boshladi.

2012-yildan buyon kafedraga dotsent Xudoyarova A.G. rahbarlik qilgan.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda talabalar bilimini baholashda "Miya hujumi", "Asalari uyasi", "Aylana stol atrofida", "Insident", "Stol ustida ruchka", "Rotatsiya", "Galereya", "Klaster" kabi interfaol usullardan foydalanilgan.

2016 yildan boshlab kafedra Bioorganik va biologik kimyo deb nomlana boshlandi. Kafedra mudiri etib dotsent Xolboev Yu.X. tayinlandi. Kafedrada 6 nafar dotsent, 2 nafar kata o'qituvchi va 8 nafar assistentlar faoliyat olib bormoqda.



Kafedra jamoasi

KAFEDRANING O'QUV JARAYONI

Kafedraning hozirgi vaqtdagi xodimlari tarkibida dotsentlar Inakov T.K. , Xamidov I.I., Xolboev Yu.X., katta o'qituvchi k.f.n. Abduraxmonov U.K. assistentlar Mamajonov J.Sh. , O'rmonov A.A., laborant M. Qirg'izovalar faoliyat ko'rsatishmoqda.



katta o'qituvchi, k.f.n. Abduraxmonov U.K.
amaliy mashg'ulot paytida



Dotsent Inakov T.K.talabalarga
”Nuklein kislotalar” mavzusida dars o'tmoqda

KAFEDRANING ILMIY TATQIQOT ISHLARI

Kafedraning ilmiy salohiyati hozirda 37,5foiz bo'lib, xodimlar tomonidan so'nggi yillarda 2 ta monografiya, 3 ta o'quv qo'llanma, 6 ta patent, 50 dan ortiq ilmiy maqolalar yaratildi. Ilmiy ishlar natijalari amaliyotga tatbiq etildi. Dotsent Tojiboev M.M. (DSc) doktorlik dissertatsiya ishini himoya qilish arafasida turibdi. Kafedraning yosh assistentlari Mamajonov J.Sh. va Chalaboeva Z.M. lar (PhD) bo'yicha ilmiy mavzusini tasdiqlatib dissertasiya ishini boshladi.

KAFEDRANING MA'NAVIY VA MA'RIFIY ISHLARI

Kafedrada haftaning har seshanba kuni “Ma'naviyat kuni”, chorshanba kuni “Sog'lomlashtirish kuni”, payshanba kuni “Profilaktika kuni” o'tkaziladi. Bundan tashqari har kuni ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslari boshlanishidan avval talabalar orasida 10-15 daqiqa davomida ma'naviy suhbatlar uyushtiriladi. Har hafta kafedramizning professor o'qituvchilari ADTI talabalari turar joyida kafedraga birlashtirilgan xonalarga tashrif buyurib, talabalar bilan suhbat o'tkazib borishadi.



Kafedraning ma'naviyat va ma'rifat xonasi

Dotsent Inakov T.K. va katta o'qituvchi, k.f.n. Abduraxmonov U.K., 101-a guruh, dotsent Xamidov I.I. va assistent Mamajonov J.Sh., 101- b guruh, katta o'qituvchi, k.f.n. Xolboev Yu.X. va assistent O'rmonov A.A. 102-a guruhlariga rahbarlik qilib, talabalarning davomati, dars qoldirmasliklari haqida doimiy ogohlantirib boradilar va rejadagi mavzular bo'yicha suhbatlar olib boradilar. Bundan tashqari talabalarning turar joylariga tashriflar, ularning ota-onalari bilan muloqotlar ham tashkil qilinadi.



**Kafedra mudiri Yu.X.Xolboev
Jinoyatchilik va giyohvandlikning
oldini olish bo'yicha mahallada suhbat
jarayoni**



**Murabbiy ass. Mamajonov J.Sh.
ijarada turuvchi talabalar bilan
suhbat paytida**